

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA PEYZAJNING POETIK TALQINI

M.Narziyeva

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti o'qituvchisi, PhD*

N.Maxammadiyeva

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya. ushbu maqolada yozuvchi va shoirlarning tabiat manzaralari tasviriga e'tibori, ularning asarlarida peyzajning o'rni, qolaversa, peyzajning badiiy asardagi funksiyalari haqida so'z boradi. Peyzajning poetik manzara yaratishning muhim vositasi ekanligi, lug'atlarda berilishicha, peyzaj fransuz tilidagi "paysage" so'zidan olingan bo'lib, "mamlakat", "yurt", "joy", "er" ma'nolarini anglatishi, badiiy asar tahliliga doir adabiyotlarda peyzaj san'atining asar tuzilishida muhim o'rin tutishi haqida ma'lumotlar beriladi. Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimovning peyzajga bo'lgan munosabati, asarlarida tabiat manzaralari hamda interyerning qo'llanilishi va bu kabi kompozitsiyaning unsurlari orqali asar qahramonining ruhiyatini, kayfiyatini ifodalab berish mahorati to'g'risida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: tabiat manzaralari, peyzaj, interyer, badiiy asar, san'at, kompozitsiya, ruhiyat, kayfiyat, syujet, arxitep, borliq, tasvir, contrast, manzara, estetik baho, emotsional mazmun.

Аннотация. В данной статье говорится о внимании писателей и поэтов к изображению природных пейзажей, роли пейзажа в их произведениях, функциях пейзажа в художественных произведениях. Дело в том, что пейзаж является важным инструментом для создания поэтического пейзажа, согласно словарям, пейзаж происходит от французского слова «paysage» и означает «страна», «место», «земля», анализ художественного произведения в соответствующей литературе представлены сведения о важном месте садово-паркового искусства в структуре произведения. Талантливый писатель Уткир Хашимов отношение к пейзажу, использование в своих произведениях природных ландшафтов и интерьеров, умение через элементы такой композиции выразить психику и настроение героя произведения.

Ключевые слова: природный пейзаж, пейзаж, интерьер, художественное произведение, искусство, композиция, психика, настроение, сюжет, архетип, бытие, образ, контраст, декорация, эстетическая оценка, эмоциональное содержание.

Abstract. this article talks about the attention of writers and poets to the depiction of natural landscapes, the role of landscape in their works, and the functions of landscape in artistic works. The fact that the landscape is an important tool for creating a poetic landscape, according to the dictionaries, landscape is derived from the French word "paysage" and means "country", "country", "place",

"earth", the analysis of the artistic work the relevant literature provides information about the important place of landscape art in the structure of the work. Talented writer O'tkir Hashimov the relationship to the landscape, the use of natural landscapes and interiors in his works, and the ability to express the psyche and mood of the hero of the work through the elements of such a composition.

Key words: natural scenery, landscape, interior, artistic work, art, composition, psyche, mood, plot, archetype, being, image, contrast, scenery, aesthetic evaluation, emotional content.

Sharq tafakkurida butun borliq inson uchun yaratiladi, oddiygina tuproqdan yaralgan odam farzandi o'zi yaralgan zaminni ona deb biladi, unda unib-o'suvchi nabotot va hayvonotga mehr qo'yadi. Go'yoki erdan ungan chechak borliqqa go'zallik ulashgani kabi inson ham o'zi tug'ilgan erning obodligiga, yashnashiga o'z hissasini qo'shishga intiladi. Shu bois butun borliq, ona tabiat ijodkorlarning ilhom manbaiga aylandi. "Adabiyot u yoki bu yumush bilan band bo'lgan xalqning o'y-xayollari, orzu umidlari, armon va xo'rsiniqlarining ulkan, yaxlit ruhiy-ma'naviy olam arxetipga urilib, atrofga sochilgan aks sadosidir, aslida! Shunga ko'ra har qanday millatning istalgan davr adabiyotini qo'lga olib, hijjalab o'rganib chiqish degani o'sha millatning ma'lum davrda boshidan, yuragidan kechirganlari bilan tanishish, deganidir. Biroq buning bitta sharti bor: shu xalq va shu davrga mansub shoir (yoki har qanday boshqa san'atkor) o'z qismati bilan, dunyoqarashiyu olgan ta'lim-tarbiyasi, yashash tarzi bilan shu xalqqa va shu xalq yaratgan davr kayfiyatiga mansub bo'lmog'i zarur!"¹

Insoniyat yaralgandan buyon ajdodlarimiz tomonidan yozilgan minglab kitoblar ona tabiatga, uning go'zal ta'rifu tavsifiga bag'ishlanganligining ham sababi shunda. Yozuvchi, ayniqsa, tabiat manzaralari tasviriga alohida e'tibor qaratadi va ko'pgina asarlarini o'ziga xos peyzaj bilan boshlaydi. Aslida har bir asarda peyzajning o'rni muhim bo'lib, usiz asarning ta'sirchanligi va voqealar rivojining ishonarliligini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun yozuvchilar asar yaratayotganda o'z g'oyaviy niyatini kitobxonga etkazish uchun faqat qahramonlarning xatti-harakatlari emas, balki ularni o'rab turgan tabiat manzaralari tasvirlaridan ham keng foydalanadi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy, estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Asarda tabiat manzarasining tasvirlanishi bilan yozuvchi o'zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Badiiy asarda peyzajdan ikki xil usulda foydalaniladi: qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlash va qarama-qarshi (kontrast) usulda tasvirlash. Peyzaj tasviri orqali muallif o'zining asosiy g'oyaviy niyatini ilgari surishi ham mumkin. Ammo peyzajlar qahramonlarning hissiy tajribalarini ochishning asosiy vositalaridan biridir. Bundan tashqari, ular sodir bo'layotgan narsalarga muallifning munosabatini etkazishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, peyzaj asarning g'oyaviy mazmuni va xarakterlarni ochishda qo'shimcha badiiy vosita

¹ <http://ulugbekhamdam.uz> Шеър – борлик ва йўқлик ораси.

hamdir. Yozuvchi peyzaj orqali yo bevosita o'z fikrlarini bayon qiladi yoki personajlarning ichki kechinmalarini ko'rsatadi. Har ikkala holda ham peyzaj ma'lum g'oyani ifodalaydi². Shu o'rinda peyzaj atamasiga murojaat etishga to'g'ri keladi. Peyzaj poetik manzara yaratishning muhim vositasi. Lug'atlarda berilishicha, peyzaj fransuz tilidagi "paysage" so'zidan olingan bo'lib, "mamlakat", "yurt", "joy", "er" ma'nolarini anglatadi. Badiiy asar tahliliga doir adabiyotlarda peyzaj san'atining asar tuzilishida muhim o'rin tutishi qayd etiladi. U universal shakliy-hikoyachilik kategoriyasi bo'lib, matnning g'oyaviy-mavzuyi, makon va zamonda tashkillashuviga xizmat qiladi hamda uslubiy va ma'naviy ko'p vazifaligiga ko'ra ajralib turadi. Adabiyotshunoslik ilmida an'anaga ko'ra peyzaj deyilganda tabiat ko'rinishlari tushuniladi. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da berilishicha, "Badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo'lib, u yozuvchining metodi va uslubi bilan bog'liq holda turlicha vazifalarni o'taydi"³. L.I.Timofeevning ko'rsatishicha, peyzaj – "badiiy matnda yozuvchi metodi va uslubiga bog'liq holda turli vazifalarni bajaruvchi tabiat ko'rinishlari tasviridir"⁴. B.Galanov esa peyzajni "asardagi harakat vaqti va joyini belgilovchi va ma'lum kayfiyat hosil qiluvchi tabiat tasviri" deb hisoblaydi⁵. M.N.Epshteyn peyzajni "o'zaro bog'liq bo'lgan predmetli detallar tizimida tabiatning yaxlit tasvirlanishi" sifatida tavsiflaydi⁶. T.N.Gurev esa peyzajni tabiat manzarasi deb talqin qiladi⁷. Rassomlik san'atiga e'tibor qaratilsa, manzara, ya'ni peyzaj janr sifatida e'tirof etiladi⁸. Biroq adabiyotshunoslikda peyzaj janr sifatida ifoda etilmaydi. Demak, yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo'ladi, peyzaj – tabiatning badiiy asardagi tasviridir. "Peyzaj asar, avvalo, mavzu e'tibori bilan batamom peyzajga bag'ishlangan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, asarda muayyan manzara tasvir etiladi. Uchinchidan, bu poetik manzara shoir yoki lirik qahramon kechinmalari orqali bayon etiladi. To'rtinchidan, peyzaj asarda muallifning g'oyaviy muddaosi tabiat go'zalliklarini madh etish (ba'zan esa, tabiatdagi og'ir damlarning iztirobli tasviri ham uchraydi) va kishilarni tabiatdan zavq olishga chorlashdan iboratdir"⁹.

N.B.Muradaliev badiiy asardagi peyzajning uch elementi, bosqichi mavjudligini qayd qiladi. Bular: peyzaj detali, peyzajli tasvir, peyzajli asar. Muallifning fikricha, "o'zida emotsional mazmun, estetik baho va muallif pozitsiyasini qamrab olgan obrazli detal" peyzajli detal deyiladi¹⁰. Adabiyotshunos K.V. Pigarevning ta'kidlashicha, peyzaj, avvalo, "vatanga

²<https://kutuphane.karabuk.edu.tr/yuklenen/dosyalar/126912020102453.pdf>

³Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 228.

⁴Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 216.

⁵Галанов Б.Е. Живопись словом. Портрет. Пейзаж. Вещь [Текст] /Б.Е. Галанов. – М.,1974. – С. 185.

⁶Эпштейн М.Н. "Природа, мир, тайник вселенной..." : Система пейзажных образов в русской поэзии. – М., 1990. –С. 114.

⁷Гурьева Т.Н. Новый литературный словарь. – Ростов на Дону.,2009. – С. 213.

⁸Бекмиров Ж. Манзара жанрини тасвирий санъатдаги ўрни ва тарбиявий аҳамияти. Academic research in educational sciences, 2021. – Б. 243.

⁹Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 14

¹⁰Мурадалиева, Н.Б. Романтический пейзаж в литературе. – Баку., 1991. – С. 139.

muhabbat tuyg'usiga to'lib toshgan bo'lishi kerak. Shundagina u milliy peyzaj hisoblanadi"¹¹. Ammo talqinlar qanday bo'lishidan qat'i nazar, adabiyotshunoslikda mazkur terminga berilgan ta'riflarni umumlashtirsak, uning ko'p ma'noda qo'llanishi ma'lum bo'ladi.

L.M.Krupchanov badiiy asar tilida qo'llanuvchi peyzajning vazifalarini quyidagicha talqin qiladi:

1. Peyzajda harakat aylanuvchi emotsional holatni hosil qilishi mumkin;
2. Peyzaj insonning hayoti va turmushini belgilaydigan, ya'ni insonning mehnatiga qo'shimcha joy, sharoit sifatida namoyon bo'lishi mumkin;
3. Peyzaj qahramonning ma'lum ruhiy holatiga diqqatni tortishi yoki tabiatning kontrastli yoki o'xshash manzaralarini hosil qilish yordamida uning xarakteridagi u yoki bu xususiyatlarni yaqqol ifodalashi mumkin;
4. Tabiat ko'pincha inson va u bilan o'zaro ta'sirdagi kuzatuvchi tirik jon sifatida namoyon bo'ladi;
5. Peyzaj asarning emotsional ma'nosini kuchaytiradi va uning g'oyaviy mazmunini teranlashtiradi, yozuvchining asosiy fikri ifodalanishiga imkoniyat yaratadi;
6. Peyzaj ta'sirni kuchaytiruvchi vositalardan, davrlaridan, syujet elementlaridan biri, ya'ni u badiiy asar ta'siri kuchayishiga uzviy ravishda kirishishi mumkin;
7. Peyzaj badiiy asar mazmuniga yozuvchi tasvirlagan milliy ijtimoiy voqelik qismi sifatida qaralishi mumkin;
8. Peyzaj ijtimoiy, ramziy va allegorik, kompozitsion yoki ramkaga soluvchi, poetik yoki estetik rol o'ynashi mumkin¹².

Adabiyotshunoslikda ma'lum ma'noda peyzajga bog'liq portret atamasi ham qo'llaniladi. Shunisi xarakterliki, peyzaj ham portret ham ko'rinishning tasviriga asoslanadi.

“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da manzara so'zi peyzaj so'zining sinonimi sifatida keltirilsa-da, unga musavvirlik nuqtayi nazaridan izoh berilgan: Manzara, peyzaj tasviriy san'atning tabiat ko'rinishini aks ettiradigan janri va shu janrda yaratilgan san'at asari. Manzarada shahar ko'rinishi yoki me'moriy majmualar (me'moriy manzara), dengiz ko'rinishlari (marina) va hokazolar ham tasvirlanadi. Atrof-muhitni tasvirlayotgan rassom unda o'zi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi, shu jihatdan yaratilayotgan asar his-tuyg'u va g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan atrof dunyoni ma'naviy (qisman amaliy) o'zlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan manzara o'zida katta ma'no tashiydi¹³.

Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov o'z asarlarida peyzajga, ya'ni tabiat tasviriga ko'p o'rinlarda murojaat qiladi. Tabiat tasviri bu o'rinlarda asosan asar qahramonining ruhiy holatini, kayfiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

¹¹Пигарев, К.В. Русская литература и изобразительное искусство. Очерки о русском национальном пейзаже середины XIX в. – М., 1972. – С. 7.

¹²Крупчанов, Л.М. Теория литературы: учебник. – М: Флинта: Наука, 2012. – С. 360.

¹³Манзара <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/manzara-uz/>

“Urushning so‘nggi qurboni” asaridan olingan quyidagi parcha yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir: Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitilmas edi¹⁴. Bu tasvir qora kunlar uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasini oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun¹⁵ o‘sha xudo bexabarlardan qasos olish payida bo‘lgan Shoikromning ruhiy holatini namoyon qiladi. Shamolning o‘kirishi, osmonning turli burchida chaqmoqning yaraqlashi, yong‘oq shoxlarining shubhali g‘iyqillashi kitobxonni asarning davomida ro‘y berishi lozim bo‘lgan mudhish fojiadan ogoh etadi.

O‘tkir Hoshimov asar qahramonlarining ruhiyatini ifodalashda nafaqat tabiat tasviridan, balki interyerdan ham o‘rinli foydalanadi. Bizga ma‘lumki, “uy, o‘tov, xona singari yopiq joylar interyerdur. Badiiy asarlarda ana shunday yopiq makonlarning ko‘rinishi, undagi narsalarning turishi, joylashishi ham tasvirlanadi”¹⁶. “Urushning so‘nggi qurboni” asarining quyidagi o‘rinlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak: Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to‘g‘rida hech kim o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi¹⁷. Yozuvchi Shoikromning xomushligini, uning tushkun kayfiyatini interyer orqali yaqqol ifodalab beradi. Asarning quyidagi o‘rnida qo‘llangan interyer orqali esa Shoikromning ayoliga bo‘lgan munosabatini payqab olish mumkin: Shoikrom uyqu elita boshlagan ko‘zlari bilan o‘sha tomonga bir qarab qo‘ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o‘sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi. «Ziqna bo‘lmay o‘! - deb o‘yladi xotinini so‘kib. - Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi». Ter hidi anqib turgan lo‘laboshi, go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq o‘quvchiga bir tomondan zamonning ne chog‘li og‘ir ekanligidan dalolat bersa, bir tomondan esa Xadichaning ziqnaligiga ishora qiladi.

Xullas, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida tabiat manzaralarini ifodalashga alohida e‘tibor qaratadi. Xoh, u tabiat tasviri, xoh u interyer bo‘lsin, asar kompozitsiyasining bu kabi muhim unsurlari orqali asar qahramonining ruhiy holatini, kayfiyatini hamda maishiy hayot tarzini yorqin namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Manba <https://tafakkur.net/urushning-songgi-qurboni/otkir-hoshimov.uz>
2. Ulug‘ov A. adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2017. – 70 b.

¹⁴ Manba <https://tafakkur.net/urushning-songgi-qurboni/otkir-hoshimov.uz>

¹⁵ Manba <https://tafakkur.net/urushning-songgi-qurboni/otkir-hoshimov.uz>

¹⁶ Ulug‘ov A. adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2017. – 70 b.

¹⁷ O‘sha manba.

3. Галанов Б.Е. Живопись словом. Портрет. Пейзаж. Вещь [Текст] /Б.Е. Галанов. – М.,1974. – С. 185.
4. Гурьева Т.Н. Новый литературный словарь. – Ростов на Дону.,2009. – С. 213.
5. Крупчанов, Л.М. Теория литературы: учебник . – М: Флинта: Наука, 2012. – С. 360.
6. Манзара <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/manzara-uz/>
7. Мурадалиева, Н.Б. Романтический пейзаж в литературе. – Баку., 1991. – С. 139.
8. Пигарев, К.В. Русская литература и изобразительное искусство. Очерки о русском национальном пейзаже середины XIX в. – М., 1972. – С. 7.
9. Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 216.
10. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 228.
11. Эпштейн М.Н. “Природа, мир, тайник вселенной...” : Система пейзажных образов в русской поэзии. – М., 1990. –С .114.